

KELAJAK MUHANDISLARI VA AGROTEKNOLOGIYA MUTAXASSISLARINING KASBIY NUTQIY KOMPETENSIYASINI INGLIZ TILIDA SHAKLLANTIRISH USULLARI

Qurbonova Farangiz Mirzayevna

TerDMAU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi

Omonova Durdona Orifovna

Talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20594948>

Annotatsiya:

Mazkur maqolada nofilologik, xususan, muhandislik va agroteknologiya yo'nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy nutqiy kompetensiyasini shakllantirish muammolari tahlil qilinadi. An'anaviy grammatika va matn tarjimasiga asoslangan metodlarning samorasizligi ko'rsatilib, o'rniga zamonaviy CLIL (Fan va til integratsiyalashgan ta'lim) hamda ESP (Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili) yondashuvlari taklif etilgan. Maqolada talabalarni darsda faollashtiruvchi amaliy metodlar va interaktiv loyihalar hayotiy misollar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy nutqiy kompetensiya, agroteknologiya, muhandislik ta'limi, ESP, CLIL, loyiha asosida o'qitish, keys-stadi.

Abstract:

This article examines the challenges and methodologies associated with developing the professional communicative competence of students in non-linguistic higher education institutions, specifically within the fields of engineering and agrotechnology. In the context of rapid agricultural digitization and global industrial integration, the traditional grammar-translation method fails to equip future specialists with the necessary oral proficiency for international collaboration. The study proposes a paradigm shift toward Content and Language Integrated Learning (CLIL) and English for Specific Purposes (ESP) as more viable alternatives. Practical, student-centered approaches are analyzed, including interactive case studies based on real-world agrarian crises, professional role-plays, and project-based learning models such as designing eco-friendly smart farms. The integration of these techniques bridges the gap between theoretical linguistic knowledge and practical professional application. The paper concludes that embedding English language learning directly within the technical and situational context of the students' future professions diminishes communication barriers and significantly enhances their global competitiveness.

Keywords: professional speech competence, agrotechnology, engineering education, English for Specific Purposes (ESP), Content and Language Integrated Learning (CLIL), project-based learning, case study.

Bugungi global iqtisodiyot va tezkor texnologik taraqqiyot davrida zamonaviy muhandis yoki agronom faqat o'z sohasi doirasidagi tor texnik bilimlarga ega bo'lishi yetarli emas. Agrar sohaning raqamlashishi (Smart Farming), zamonaviy gidroponika texnologiyalari, tomchilatib sug'orish tizimlari va avtomatlashtirilgan qishloq xo'jaligi texnikalari bevosita xorijiy innovatsiyalar bilan bog'liq. Bu esa bo'lajak mutaxassislardan xalqaro miqyosda fikr almashish, xorijiy adabiyotlarni o'qish va ingliz tilida erkin kasbiy muloqotga kirisha olishni talab etadi. Biroq, oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida ko'pincha umumiy ingliz tili (General English) qoidalari yoki quruq texnik matnlarni shunchaki tarjima qilish bilan cheklanib qolinmoqda. Natijada, talaba darsda "Present Perfect" qoidasini bilsa-da, real hayotda xorijiy

hamkorga yangi agrotexnologiyaning ishlash prinsipini ingliz tilida tushuntirib bera olmaydi. Ushbu maqolada kelajak muhandislari va agrotexnologlarining aynan kasbiy-nutqiy kompetensiyasini, ya'ni o'z sohasida ingliz tilini amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishning eng samarali metodlari muhokama qilinadi.

Muhandislik va agro-texnologiya yo'nalishi talabalarining tafakkuri ko'proq vizual, mantiqiy va algoritmlarga asoslangan bo'ladi. Ularga quruq qoidalar va mavhum mavzulardagi (masalan, "London is the capital of Great Britain") darslar zerikarli tuyuladi. Kasbiy nutqni shakllantirishdagi asosiy to'siqlar:

1. **Mavzularning reallikdan uzoqligi:** O'quv dasturlaridagi matnlarning talaba kelajakda bajaradigan real ishi bilan bog'liqligi pastligi.
2. **Atamalar (Terminologiya) qo'rquvi:** Murakkab texnik yoki biologik terminlarni nutqqa moslashtira olmaslik.
3. **Muloqot muhitining yo'qligi:** Darslarda asosan yozma mashqlar yoki matn o'qishga urg'u berilib, og'zaki nutq amaliyotining cheklanganligi.

Bo'lajak mutaxassislarni til o'rganishga qiziqtirish va ularda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun dars jarayonini bevosita ularning sohasi bilan "chatishtirish" zarur.

1. CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodikasi

Bu yondashuvda ingliz tili alohida fan emas, balki mutaxassislik fanini o'rganish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, o'qituvchi darsda shunchaki passive voice (majhul nisbat) grammatikasini o'tmaydi. Buning o'rniga talabalarga *"Issiqxonalarda tuproq namligini avtomatik nazorat qilish tizimi"* (Automated Soil Moisture Control) sxemasi beriladi. Talabalar sxemani o'rganib, tizim qanday ishlashini ingliz tilida majhul nisbat shakllaridan foydalanib gapirib berishadi (*"Water is supplied through pipes..."*, *"Data is collected by sensors..."*). Fikr soha haqida ketganda, talabada nutq motivatsiyasi uyg'onadi.

2. Muammoli Keys-stadi (Case Study) usuli

Talabalarga qishloq xo'jaligi yoki muhandislikdagi real, hayotiy muammoli vaziyat taqdim etiladi va uni jamoada muhokama qilib, ingliz tilida yechim taklif qilish topshiriladi.

Hayotiy keys: *"Surxondaryo sharoitida sho'rlangan yerlarda hosildorlikni oshirish uchun qanday agrotexnologik yechim taklif qilasiz?"* Talabalar 3-4 kishilik jamoalarga bo'linib, ingliz tilida "Drip irrigation" (Tomchilatib sug'orish), "Crop rotation" (Navbatlab ekish) kabi atamalarni qo'llagan holda o'z g'oyalarini himoya qiladilar. Bu jarayon talabani shunchaki atamalarni yodlashga emas, balki ularni muloqotda jonli ishlatishga majbur qiladi.

3. Professional rol o'yinlari (Role-play va Simulyatsiyalar)

Auditoriyani kelajakdagi ish joyining kichik simulyatsiyasiga aylantirish nutqiy to'siqlarni (language barrier) sindirishda juda qo'l keladi.

Ssenariy: Talabalarining bir qismi "Xorijiy agrofirma investorlari", ikkinchi qismi esa "Mahalliy innovatsion muhandislar" rolini ijro etadi. Vazifa — o'z hududida yangi zamonaviy agrotexnik loyihani yo'lga qo'yish bo'yicha ingliz tilida muzokara (Negotiations) olib borish va loyiha taqdimotini (Presentation) taqdim etish.

4. Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning)

Talabalarga yakuniy nazorat yoki joriy baholash uchun quruq test topshirish o'rniga kichik amaliy loyiha tayyorlash yuklanadi. Masalan, *"Eko-do'stona aqlli ferma loyihasi"* (Eco-friendly Smart Farm layout). Talabalar maket yoki taqdimot tayyorlab, undagi texnik jarayonlarni ingliz

tilida gapirib, himoya qilib berishadi. Bu usul talabalarda nafaqat tilni, balki jamoada ishlash va taqdimot qilish (Soft Skills) ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Kelajak muhandislari va agrotexnologiya mutaxassislarining ingliz tilidagi kasbiy nutqiy kompetensiyasini faqatgina darslik doirasidagi qoliqlar bilan cheklanib shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun ingliz tili darslari laboratoriya yoki real ishlab chiqarish maydonidek jonli bo'lishi, terminlar quruq lug'at sifatida emas, balki muammoning yechimi sifatida nutqqa olib kirilishi shart. O'qitishga bunday yondashuv oliy ta'lim bitiruvchilarining nafaqat diplomli, balki xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh, fikri ochiq mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach*. Cambridge University Press.
2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.
3. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A learning-centred approach*. Cambridge University Press.
4. Harding, K. (2007). *English for Specific Purposes: Express Series*. Oxford University Press.
5. Ishmuhammedov, R. J. (2010). *Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari*. Toshkent: TDPU.
6. Jalolov, J. J. (2012). *Chet til o'qitish metodikasi (Chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik)*. Toshkent: O'qituvchi.
7. Yuldashev, J. G., & Hasanov, S. (2004). *Pedagogik texnologiya asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.
8. Widdowson, H. G. (1983). *Learning Purpose and Language Use*. Oxford University Press.